

DIALEKTOLOGIK VA DIALEKTOGRAFIK TADQIQOTLARDA "TIL VA SHAXS MUSHARAKLIGI" PRINSIPINING ZARURATI

*Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti
normuminovsh088@gmail.com*

Annotatsiya. Dialektologik va dialektografik tadqiqotlarda "til va shaxs" mushtarakligi prinsipi bugungi kunda shaxsning tili uning shaxsiyatiga bog'liq omillarni anglatishi va yoshi, jinsi, mavqeyiga qarab uning nutqida tuli o'zgachalikni aks ettirishini ifodalaydi. Maqolada ushbu mavzuning dolzarbli va zarurati haqida asosli fikrlar keltiriladi. Shuningdek, mazkur maqolada dialektologik va dialektografik tadqiqotlarda "til va shaxs mushtarakligi" prinsipining ilmiy ahamiyati yoritiladi. Dialektlarni o'rganishda individual til egalarining psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olish zarurligi ta'kidlanadi. Shu asosda, har bir til hodisasi ortida turgan shaxsning tajribasi, dunyoqarashi va tilga bo'lgan munosabati tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida ko'rildi. Maqolada bu prinsip asosida amalga oshirilgan dialektologik kuzatuvlar va ularning amaliy natijalari misolida ilmiy yondashuvning samaradorligi tahlil qilinadi hamda kelgusida qilinishi zarur bo'lgan vazifalar to'g'risida o'rganilgan tadqiqotlarga tayangan holda ma'lumotlar ilmiy asoslanishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar. Dialektologiya, dialektografiya, til va shaxs, tilshunoslik, individual til tajribasi, til madaniyati, lingvistik prinsip, dialektal tadqiqotlar, jamiyat, nutq.

LEKTOLOJİK VE LEKTOGRAFİK ARAŞTIRMALARDA 'DİL VE KİŞİLİK PAYLAŞIMI' PRENSİBİNİN GEREKLİLİĞİ

*Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü doçenti*

Özet. Diyalektolojik ve diyaleografik araştırmalarda "dil ve şahıs" ortaklısı prensibi günümüzde şahsin dili, onun kişiliğine bağlı unsurları ifade etmekte ve yaşı, cinsiyeti, statüsüne göre onun konuşmasında belirgin farklılıklar yansıttığını göstermektedir. Makalede bu konunun güncelliği ve gerekliliği hakkında makul düşünceler sunulmaktadır. Ayrıca, bu makalede diyalektolojik ve diyaleografik araştırmalarda "dil ve şahıs ortaklısı" prensibinin bilimsel önemi ele alınmaktadır. Diyalektlerin incelenmesinde bireysel dil sahiplerinin psikolojik, sosyal ve kültürel özelliklerinin dikkate alınması gerekişi vurgulanmaktadır. Bu temele dayanarak, her dil olgusunun arkasında yatan şahsin deneyimi, dünya görüşü ve dile olan tutumu araştırmalar için önemli bir kaynak olarak görülmektedir. Makalede bu prensip temelinde gerçekleştirilen diyalektolojik gözlemler ve bunların pratik sonuçları örneğinde bilimsel yaklaşımın etkinliği analiz edilmekte ve gelecekte yapılması gereken görevler hakkında incelenen araştırmalara dayanarak bilgiler bilimsel bir temele oturtulmaya çalışılmaktadır.

Anahtar kelimeler. Diyalektoloji, diyalektografi, dil ve şahıs, dilbilim, bireysel dil deneyimi, dil kültürü, dilbilimsel prensip, diyalektik araştırmalar, toplum, konuşma.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИНЦИПА 'ЯЗЫК И ЛИЧНОСТЬ ОБЩЕСТВА' В ДИАЛЕКТОЛОГИЧЕСКИХ И ДИАЛЕКТОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

*Нормоминов Шерзод Тўйчиевич,
доцент Узбекско-Финляндского педагогического института*

Аннотация. В диалектологических и диалектографических исследованиях принцип единства «языка и личности» сегодня подразумевает, что язык человека выражает

факторы, связанные с его личностью, и отражает своеобразие его речи в зависимости от его возраста, пола и статуса. В статье изложены обоснованные мнения об актуальности и необходимости данной темы. В статье также подчеркивается научное значение принципа «общности языка и личности» вialectологических и dialectографических исследованиях. Подчеркивается, что при изучении dialectов необходимо учитывать психологические, социальные и культурные особенности отдельных носителей языка. На этой основе опыт, мировоззрение и отношение к языку отдельного человека, стоящие за каждым языковым явлением, рассматриваются как важный источник для исследования. В статье анализируется эффективность научного подхода на примере dialectологических наблюдений и их практических результатов, основанных на этом принципе, а также делается попытка научно обосновать информацию на основе проведенных исследований относительно задач, которые необходимо решить в будущем.

Ключевые слова. Диалектология, диалектография, язык и личность, лингвистика, индивидуальный языковой опыт, языковая культура, языковой принцип, диалектология, общество, речь.

THE NECESSITY OF THE PRINCIPLE OF ‘LANGUAGE AND PERSONALITY SHARED’ IN DIALECTOLOGICAL AND DIALECTOGRAPHIC RESEARCHES

*Normo'minov Sherzod To'ychiyevich,
Associate Professor at the Uzbekistan-Finland pedagogical institute*

Annotation. In dialectological and dialectographic research, the principle of "language and personality" interdependence today implies that an individual's language is tied to factors related to their personality, and that variations in their speech reflect differences based on age, gender, and social status. The article presents substantial arguments regarding the relevance and necessity of this topic. Furthermore, the scientific significance of the "language and personality interdependence" principle in dialectological and dialectographic studies is elucidated. The need to consider the psychological, social, and cultural characteristics of individual language speakers in dialect research is emphasized. On this basis, the experiences, worldview, and attitude toward language of each person behind every linguistic phenomenon are regarded as important sources for research. The article analyzes the effectiveness of the scientific approach through dialectological observations conducted based on this principle and their practical outcomes. Additionally, it attempts to provide scientifically grounded information about necessary tasks for future research, building upon the studied investigations.

Keywords. Dialectology, dialectography, language and personality, linguistics, individual language experience, language culture, linguistic principle, dialectal research, society, speech.

Jahon tilshunosligida dialectologiya sohada bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan va hozirda ham izlanishlar davom etmoqda. Dialektlar va ularning turli jihatlari doim tilshunoslarni qiziqtirib kelgan eng muhim muammolardan sanaladi. Har bir millatning tili uning dialectlarida aks etadi. Zamonaviy dialectologiyada shakllangan dialect tushunchasi Yevropa mamlakatlariga xos bo‘lgan lingvistik vaziyatga qaratilgan bo‘lib, u yerda dialectlar milliy adabiy til bilan bir qatorda turli shakllarda (so‘zlashuv va boshqa) mavjud.

Dialectlarni o‘rganishning jihatlari va usullari xilma-xildir. Dialectologiyada mustaqil yo‘nalishlar sifatida lingvistik geografiya, kognitiv dialectikologiya, korpus dialectologiyasi, dialectal lingvokultrologiya va dialect leksikografiya kabi qator soxalarni tadqiq etish masalalari dolzarb bo‘lib turibdi. Zamonaviy dialectlar tarkibiy, tipologik, hududiy, sotsiolingvistik, kommunikativ, funksional va boshqa jihatlarda o‘rganiladi. Dialectologiya va etnografiya (etnologiya, etnolingvistika), dialectologiya va xalq og‘zaki ijodi bog‘liqligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek an'anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan substansial tilshunosligining hozirgi holati tilshunoslikda yangi yo'naliishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ular diqqat-markazida "lison-nutq" masalasini turli daraja va ko'rinishda namoyon qiluvchi "til va jamiyat", "til va madaniyat", "til va shaxs", "milliy til va milliy tafakkur", "til va sun'iy intellekt" kabi substansial asoslarda hal qilinuvchi muammolar turadi. Jahon tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmalari – lingvopragmatika, psixolingvistik, lingvokulturologiya, lingvokognitologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg'or fan yo'naliishlari aynan shu masalalar tadqiqi bilan shug'ullanmoqda.

Shu bilan birga, "... ozbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz zarur" [1]. Shunga ko'ra, so'nggi yillarda o'zbek tilshunosligi tom ma'noda mustaqil milliy fan sifatida o'zini namoyon qildi. Eng muhim, tilimizning milliy tabiatiga to'laqonli ilmiy-nazariy baho berildi. Qo'lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o'rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining keng qamrovli tadqiqiga o'tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o'zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg'or va samarador tadqiq usullari asosida tekshirishni kun tartibiga qo'ymoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikning ayrim juz'iy muammolariga dolzarblik tusi berilayotgani holda, mavjud ilmiy salohiyat muhim muammolar yechimiga yo'naltirilmayapti, sohaning istiqbolini belgilaydigan asosiy vazifalar hamon kun tartibidan chetda qolmoqda.

O'tmishda o'rganilgan va hozirga qadar o'rganilmagan shevalarni tadqiq qilish, shuningdek, o'rganilgan shevalarni yana qayta o'rganish zaruriyati mavjud. Qolaversa, o'tgan muddat davomida shevalarimiz to'xtovsiz rivojlanib bordi, bu faktor ham muhim hisoblanadi.

Darslik va qo'llanmalarda ijtimoiy dialekt to'g'risida nazariy ma'lumot beriladi, lekin bunday dialektlarni o'rganish ishiga kirishilganicha yo'q. Endilikda bunday dialektni o'rganish metodikasini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotni boshlab yuborish zarurati mavjud. O'zbek sotsiolingvistikasini rivojlantirish ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lishi lozim.

Zamonaviy tilshunoslik "til va jamiyat", "til va madaniyat" va "til va shaxs mushtarakligi" prinsiplarini o'rganishga qaratilgan masalalarni kun tartibiga qo'ymoqda, shuningdek, dialektologik va dialektografik tadqiqotlarda "til va shaxs mushtarakligi" prinsipini aniqlashni talab qilmoqda.

Milliy til korpusini yaratish tilshunoslikning dialektologik sathida ham amaliy samaradorlik bilan bog'liq tadqiqotlar olib borish zaruratini paydo qilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kompyuter lingvistikasi, milliy korpus, uni yaratish tamoyillariga qiziqish oshib bormoqda. Bu esa tilning barcha sohalariga oid mukammal ma'lumotlar bazasi yaratilishini taqozo qilyapti.

O'zbek dialektologiyasi dunyo dialektologiyasining uzviy qismi hisoblanadi. Shu tufayli uning tadqiqot obyekti kengayishi lozim bo'ladi. Jahon tilshunosligida o'zbek tilshunosligining yutuqlarini oshirish uchun "til va jamiyat", "til va madaniyat" va "til va shaxs mushtarakligi" kabi tushunchalar, ularni o'rganishdagi muammolarga oid tadqiqotlar olib borish talabini yuzaga chiqarmoqda. So'nggi yillarda qilinayayotgan dialektolgik tadqiqotlarda asosan shaxs nutqini fonetik leksik, morfologik va sintaktik tavsiflash bilan cheklanilmoqda. Bu prinsipga kora, til — inson aloqa vositasi emas, balki inson tafakkuri, his-tuyg'ulari, dunyoqarashi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanuvchi murakkab hodisadir.

"Bugungi global lashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrabavaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiyidir" [2]. Axborotning elektronlashuvi, milliy tilimizni internet tiliga aylantirish zarurati so'zning barcha xususiyatlari qatorida uning shevalarini ham tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bu milliy korpus uchun ta'minot vazifasini bajaruvchi dialektal leksika, dialektikal grammatika va matn hamda dialektografiyada "til va shaxs" prinsipini o'rganish tilshunoslar oldiga qo'yilgan muhim va zarur vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Bu prinsip asosida nafaqat tilni, balki uni shakllantirayotgan inson, jamiyat va madaniyatni ham tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг 30 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. 21 октябрь, 2019 йил.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni // www.lex.uz
3. Abduazizov A. “Til va tafakkur”. – Toshkent: Fan, 1995 yil.
4. Baxtiyorov S. “Nutq madaniyati va psixolingvistika”. – Toshkent: Fan, 2011.
5. Labov, W. Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
6. Зализняк А.А. Древненовгородский диалект. М., 1995.
7. Y.Saidov. O‘zbek dialektologiyasi. “Durdona” nashriyoti., 2021.
8. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқики. -Т.: Фан, 2005.